

**IBIN SINO ILMIY MEROSINING SHARQ RENESANSI
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI****Abdurasulova Iqbola Abduvohid qizi¹**¹ Oriental universiteti

Sharq tillari kafedrasi 2-bosqich talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received: 17.12.2024

Revised: 18.12.2024

Accepted: 19.12.2024

KALIT SO'ZLAR:aql, axloq, baxt-
saodat, lazzat,
insoniylik, fazilat, nafs,
sabrtoqat

Ushbu maqolamiz tadqiqot jarayonida Abu Ali ibn Sinoning hayoti va falsafiy qarashlari va renesansi qisqacha yoritib berildi. X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida ruh, aql, ilohiy va lazzat tushunchalari tahlil qilindi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining ahamiyati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga egadir. Faylasuf o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda Ibn Sino ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda.

KIRISH. O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va rolga baho berish bugungi kun falsafasining dolzarb masalalaridan biridir. Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug'allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhimdir.

Ibn Sino, Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali Afshona qishlog'i, Hamadon shahri, Eronda tavallud topdi. Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'rta osiyolik buyuk qomusiy olim G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur 967—997-yillardagi davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Hurmaysan qishlog'iga moliya

amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida Sitora ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn ya'ni Ibn Sino, kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetar-etmas Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi.

Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyotni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Shundan so'ng ota o'g'ilga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'qidi, xususan, tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.

Qadimgi o'n asrdan ko'proq vaqt davomida Abu Ali ibn Sinoning nomi butun dunyodagi o'lmas mutafakkiru olimlar bilan bir qatorda turib kelmoqda. Shuningdek u O'rta Osiyoning yetakchi namoyandalari va ma'rifatparvarlarining eng yirik vakilidir. Tabiatshunos va matematik, faylasuf va tabib, adabiyotshunos va shoir — bu bir nechta insonlar emas, balki bitta insondir. Ibn Sinoning ilm-fan va madaniyatiga qo'shgan hissasi rad qilib bo'lmas faktdir. U ensiklopedik bilimlarga ega bo'lib, turli fanlarda kashfiyotlar qildi. Abu Ali ibn Sinoning qimmatli merosi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Shuningdek u o'z tarjimai holida unga mantiq va falsafa saboqlari bergan mashhur olim Abu Abdulloh an-Notiliyning Buxoroga kelganini eslaydi. Biroq 14 yoshidan boshlab Husayn astronomiya, metafizika, geometriya va keyin tibbiyotni mustaqil ravishda o'rgana boshlaydi. So'ngra 16 yoshida yigit shifokorlik ilmini puxta va chuqur o'rganishga muvaffaq bo'ladi, o'sha davrning mashhur tabiblari undan maslahat olib turishadi.

Bir safar Buxoro amirining o'zi unga yordam so'rab murojaat qiladi. Ibn Sino g'ayrat va ishtiyoq ila tunlari bilan geometriya, astronomiya va musiqani puxta egallaydi. Eng asosiysi, u tibbiyotni yaxshi ko'rar edi. U qadimgi yunon faylasuflari va olimlarining asarlarini juda yaxshi bilar edi, ular orasida Gippokrat, Aflotun va Arastuning nomlari ham bor edi.

Abu Ali ibn Sinoning "Al-Ishorat va at-Tanbihot" asaridagi ilohiyotga doir qarashlari xususida: Ibn Sino yashagan davrda islom dinining aqidalariga binoan tanosuh ta'limoti tanqid qilinib, tan olinmas edi. Islom dinida xuddi xristian dinidagidek, jonning tanadan tanaga o'tish ta'limoti inkor etilib, jon tanaga faqat bir marta kiradi, deb hisoblangan. Ibn

Sino “Nurlanish”(As’haviya) asarida qayta tirilish va jonni tanadan tanaga o’tish masalasini ko’taradi. Bu masalani tahlil qilish uchun Ibn Sino ma’ad tushunchasini kiritadi. Ibn Sino ma’ad tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “Ma’ad – bu narsalar va holatlarning dastlabki joyi bo’lib, narsalar va holatlar bu joydan ajralib keyin unga yana qaytib keladi” – deydi – deydi. Ibn Sino ma’ad tushunchasining xilma – xil ta’riflarini ko’rib chiqadi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Sinoning, ayniqsa insonparvarlik konsepsiyasi o’ta dolzarb bo’lib, uning asosiy mazmuni ruhiy va jismoniy sog’liq haqida qayg’urishga qaratilgan. “O’tmishga ehtirom bilan qarash, Engels ta’rifi bilan aytganda, chinakam ma’rifatparvarlik belgisidir.”²¹ Sharq meditsinasi IX – XI asrlarda o’z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko’tarilgan bir paytda Abu Ali ibn Sino tom ma’noda universal zakovati bilan ilm – fan rivojiga ulkan hissa qo’shdi desak yanglishmagan bo’lamiz. Olim o’z davrida turli sohalarida erishgan ilmiy yutuqlarni falsafiy umumlashtirish, ularni izchil bayon etish va tartibga solish bilan birga, fanning turli masalalarida ajoyib yutuqlarni qo’lga kiritdi. Faylasuf o’z davri uchun ilg’or g’oyalarni olg’a surdi. Mufakkirning serqirra ijodi, hayoti va ilmiy faoliyati keng o’rganilgan, dunyoning turli tillarida qator asar va maqolalar nashr etilgan.

Renessan dastlab, Renessans atamasining lug’aviy ma’nosi hamda uning ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini yoritib o’tmoqchimiz. Renessans – “Bu tiklanish” degan ma’noni anglatadigan fransuzcha so’zdir. Renessans Yevropada XIV—XVI asrlarda bo’lib o’tgan Uyg’onish davridir. Uyg’onish davridan oldingi o’rta asrlarda hayotdagi ko’p narsalar rad etilgan. Uyg’onish davrida esa ta’lim jonlangan, savdo, san’at, musiqa, adabiyot va fan rivojlangan. Uyg’onish davri Yevropaning butun turmush tarzini o’zgartirgan. Bu Yevropada yuz bergan Renessans tushunchasining ta’rifi. Shuningdek, bu tushuncha faqat Yevropaga taalluqli emas tarixiy ma’lumotlar va olib borilgan tadqiqotlardan ma’lumki, “Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9—12-asrlar) ulkan madaniy ko’tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg’or insonparvarlik g’oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A. Mets) yoki “Sharq Uyg’onishi” (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg’onish davrida Yevropa Uyg’onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo’shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning

²¹ Abu Ali ibn Sinoning sog’liqni saqlashga doir risolalari. – T.: FAN. 1978. 3-bet
20’sha asar., 62-bet

yaratilgani shundan dalolat beradi. “Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda jadal ilgari surilayotgan Uchinchi Rennessans g‘oyasi ko‘p jihatlari bilan qadimdan davom etib kelaётgan milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga taalluqlidir. Shuning uchun ham ana shu davrda olib borilgan Sharq renessansi davri allomalarining ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish borasidagi tadqiqotlarda asosan materializm ruhi ustuvorlik qilib, tarixiy haqiqatlar buzib ko‘rsatildi”

Ushbu maqolamizda shuni aytish mumkinki, Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G‘arb madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari keyingi faylasuf olimlarning falsafiy ta’limotlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk faylasuflarimiz ilgari surgan fikrlari bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda. Buyuk yurtdoshlarimizning o‘zlarining ilmiynazariy tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta’siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Foydalanil adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sinoning sog‘liqni saqlashga doir risolalari. – T.: FAN. 1978. 3-bet
2. O‘sha asar., 62-bet
3. Jurayev, S. S. O. G. L. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BORLIQ MASALASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 12-14.
4. file:///C:/Users/Windows%2011/Downloads/b06fdc_e44face64bfc4f01a729461d91ab665d.pdf_index=true.pdf
5. F.Утаев (2022). АЖДОДЛАРИМИЗ ТАФАККУРИ ВА БУЮК ДАҲОСИ. Academic research in educational sciences, TMA Conference 3 (3), 412-415. 1-бет
6. [file:///C:/Users/Windows%2011/Downloads/abu-ali-ibn-sino-va-uning-falsafiy-qarashlari%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Windows%2011/Downloads/abu-ali-ibn-sino-va-uning-falsafiy-qarashlari%20(1).pdf)